

**2026-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.12.2025-yildagi PF-257-son**

Farmonga ko‘ra, 2025-yilda barcha xodimlar uchun (ish haftasining turidan qat’i nazar) 31 dekabr – chorshanba qo‘shimcha dam olish kuni etib belgilandi.

2026-yilda quyidagi qo‘shimcha dam olish kunlari belgilandi:

barcha xodimlar uchun (ish haftasining turidan qat’i nazar):

2-yanvar – juma;

28-may – payshanba;

29-may – juma;

31-avgust – dushanba;

6 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun:

3-yanvar – shanba;

30-may – shanba;

31-dekabr – payshanba;

5 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun dam olish kuni quyidagicha ko‘chiriladi:

2026-yilda 12-dekabr – shanba kundan 31-dekabr – payshanba kuniga.